

OILADAGI TAZIYQ VA ZO'RAVONLIKNING JINOIY-HUQUQIY TAVSIFI

Normatova Shirin Abdulnabiyevna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15621753>

Annotatsiya: Mazkur maqolada oiladagi tazyiq va zo'ravonlikning jinoiy-huquqiy tavsifiga doir msalalar tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada oiladagi zo'ravonlik va zo'rlikning turlicha tushunchalarini kriminologik tavsifi, sababi, shart-sharoitlari, tabiati, ijtimoiyligi va belgilari haqida jinoyat-huquqiy va kriminologik adabiyotlar tahlil etilib, muallif bu borada o'zining fikrlarini bayon etgan. Ushbu maqolada oiladagi jinoiy zo'ravonlikning jismoniy va ruhiy, jinsiy va iqtisodiy turlariga ham to'xtalib, ularning bir biridan farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jazo, jinoyat, jinsiy, jismoniy, zo'rlik, zo'ravonlik, oila, kriminologik, tavsifi, ruhiy.

CRIMINAL-LEGAL DESCRIPTION OF OPPRESSION AND VIOLENCE IN THE FAMILY

Normatova Shirin Abdulnabiyevna

Republic of Uzbekistan

Ministry of Internal Affairs Academy

independent applicant

Abstract: This article analyzes issues related to the criminal-legal characteristics of pressure and violence within the family. It explores different definitions of domestic violence and coercion, providing a criminological description of their causes, conditions, nature, social context, and indicators. The author examines relevant criminal law and criminological literature and presents their own perspective. The article also addresses various forms of domestic violence — physical, psychological, sexual, and economic — and explains their distinguishing features.

Keywords: punishment, crime, sexual, physical, coercion, violence, family, criminological, characteristics, psychological.

Ma'lumki, oila-turmush munosabatlari doirasidagi muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi muammolarni o'rganish, ilmiy tadqiq etish, ayniqsa bugungi kunda o'ta dolzarb masala hisoblanadi¹.

Sharq mutafakkirlarining bizlarga qoldirgan boy ilmiy-madaniy meroslarida o'zbek xalqining oila-turmush qoidalari, undagi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi madaniyat, ayniqsa, er-xotin munosabatlari to'g'risidagi inson tarbiyasida axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan fikr mulohazalar, ta'limotlar mavjud.

Mazkur muammo buyuk allomalarimiz Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, at-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgan².

¹ Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi // HUQUQ BA BURCH. – №5. – T., 2007. – B. 31.

² Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: "Yangi asr avlodi", 2007. –B. 7.

Ushbu masalaga Burhoniddin Marg'inoniy o'z fikr va mulohazalarini bildirib, "jamiyatning negizi ham, inson ruhiy-ma'naviy olamining beshigi ham oiladir"³, deb ta'kidlagan edi.

Zero, azaldan insonni hurmat qilish va ulug'lash xalqimiz tabiatiga xos milliy qadriyatdir. Qadimgi tarixiy manba hisoblanmish – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham insonning sha'ni, qadr-qimmati, or-nomusi, ayniqsa insonni ulug'lash, uning huquqlarini himoya qilish g'oyasi o'z aksini topgan. Ushbu nodir manba insoniyat va ilm-fan taraqqiyoti hamda insoniy qadriyatlarning rivojlanishiga o'zining betakror hissasini qo'shgan. "Avesto"da jinoyat va jazo, oila-nikoh munosabatlariga, bu munosabatlar jarayonida insonning huquqlariga alohida e'tibor berilgan.

Ayniqsa, jinoyat sodir etish og'ir gunoh ekanligi, undan saqlanish g'oyasi muqaddas islom dinida o'z ifodasini topgan. Xususan, bularda inson huquqlariga daxldor ko'plab qoidalar mavjud⁴. Chunki, bu manbalarda insonning huquq va erkinliklari, hayoti, sog'lig'i, or-nomusi, sha'ni, obro'si, qadr-qimmati birlamchi qadriyat sifatida tan olingan. Oila, qarindosh urug', er-xotin o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarda rahm-shavqatli bo'lish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Oilada sodir etiladigan zo'ravonlik kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi tajovuzkorlikda namoyon bo'ladi. Bu holat kundalik oila-turmush munosabatlari doirasida turlicha tajovuzkor xulq-atvorda namoyon bo'ladi.

Umumiy ko'rinishda oiladagi zo'ravonlikni quyidagilarga ajratish mumkin: ayollarga nisbatan zo'ravonlik; bolalarga nisbatan zo'ravonlik; qarindoshlarga nisbatan zo'ravonlik.

Oiladagi jinoiy zo'ravonlikning keltirib o'tilgan ta'riflari bir shaxsning ikkinchisi ustidan uning sog'lig'i yoki hayotiga zarar yetkazish maqsadini ko'zda tutib, uning ixtiyoriga qarshi qasddan jismoniy kuch ishlatishiga kelib taqaladi.

Yuqorida keltirilganlarga ko'ra oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar deyilganda esa, zo'rlik nafaqat jinoyat obyektiv tomoni usuli sifatida balki, motivning tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'ladigan jinoyatlar tushuniladi¹. Ular sirasiga qasddan odam o'ldirish, qasddan sog'liqqa og'ir, o'rtacha og'ir shikast yetkazish, nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish kabi jinoyatlar kiradi.

Shuni hisobga olish lozimki, zo'rlik ishlatish motivi barcha hollarda ham qasddan odam o'ldirgan, boshqa fuqarolarning sog'lig'iga zarar yetkazgan shaxslarni harakatlantiruvchi birdan-bir motiv hisoblanavermaydi. Mazkur yo'nalishda o'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasi asosida aytish mumkinki, so'nggi vaqtda shaxsiy o'ch olish, sug'urta mukofotini qo'lga kiritish maqsadida qotil yollash yo'li bilan sodir etiladigan odam o'ldirishlar soni ko'payib bormoqda.

Shuni hisobga olganda, tadqiqot predmetini oilada zo'rlik ishlatish birinchi o'rinda turadigan shaxsga qarshi jinoyatlar tashkil etadi. Bu, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismining "Hayotga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan I bobidan o'rin olgan jinoyat tarkiblaridir. Bunda biz quyidagi omillarni hisobga oldik. Ijtimoiy xavflilik darajasi ayniqsa baland bo'lgan jinoyatlar qasddan odam o'ldirish (JKning 105-moddasi) va qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish hamda qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi)dir. Mazkur jinoyatlar aksariyat hollarda muayyan umumiy qonuniyatlar bilan tavsiflanadi va JKning 15-moddasiga muvofiq og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga

³ Choriyev A. Inson falsafasi. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2007. –B. 184.

⁴ Inson huquqlari: Darslik / O Husanov, O.Karimova, X.Azizov, H.To'ychiyeva, Z.Karimov. – T.: Sharq, 1997. –B.16.

kiritilgan.

Ayni vaqtda, shuni nazarda tutish lozimki, rasmiy statistika “odam o’lirishlar” bo’limida bir nechta jinoyat tarkiblarini birlashtiradi: 97-modda (qasddan odam o’ldirish va unga suiqasd qilish), 98-modda (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o’ldirish) va onaning o’z chaqalog’ini qasddan o’ldirishi (99-modda).

Shulardan kelib chiqib, “oilaviy zo’ravonlik” tushunchalariga to’xtalib o’tamiz.

Oilaviy zo’ravonlikning kriminologik tavsifi, sababi, shart-sharoitlari, tabiati, ijtimoiyligi va belgilari haqida jinoyat-huquqiy va kriminologik adabiyotlarda turlicha tushunchalar berilgan. Bir qator ilmiy va yuridik adabiyotlarni tahlil etish hamda umumlashtirish shuni ko’rsatmoqdaki, fanda hanuzgacha “oilaviy zo’rlik” va “zo’ravonlik”ka oid yagona tushuncha mavjud emas. Garchi, “oilaviy zo’rlik” va “zo’ravonlik” tushunchalariga turli soha mutaxassislari tomonidan e’tibor qaratilgan bo’lsada, bu haqida yagona to’xtamga kelinmagan.

Oilaviy zo’ravonlik tushunchasini tahlil etish jarayonida “zo’rlik” va “zo’ravonlik” tushunchalari yuzasidan olimlarning fikirlarini tahlil etamiz. Chunki, bu tushunchalar oilaviy zo’ravonlik bilan bog’liqdir.

Zo’rlik – biror kishining ikkinchi bir kishini zo’ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo’li bilan xo’rlashi, jabr-zulm qilishi⁵ yoxud shaxsning konstitutsiya bilan kafolatlangan shaxsiy daxlsizligi buzilishiga sabab bo’ladigan, bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy yoki ruhiy ta’sir o’tkazishidir⁶.

Ba’zi bir adabiyotlarda zo’rlik – biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo’rlik qilishi, kuch ishlatish yo’li bilan xo’rlashi, jabr-zulm qilishi sifatida keltirilgan. U insonni jismoniy va ma’naviy zo’rlash yoxud jabr-zulm qilish shaklida namoyon bo’ladi⁷.

Hozirgi zamon jinoyat huquqi nazariyasi va qonunchiligida shaxsga qarshi zo’rlik ishlatishning boshqa jinoyatlarga nisbatan kengroq sharhlanayotgani guvohi bo’lamiz. Bu borada “zo’rlik”, “zo’ravonlik” tushunchasiga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, o’zbek tilining izohli lug’atida “zo’ravonlik” so’ziga zo’ravonlarga xos xatti-harakat; zo’rlik, kuch ishlatish⁸ degan ta’rif berilgan. Bu ta’rif “zo’rlik” so’zining haqiqiy ma’nosini ochib bermaydi, shuning uchun u jinoyat-huquqiy mezon sifatida zo’rlikka izoh berish uchun asos qilib olinishi mumkin emas. Bizningcha har bir jinoyat “qiyinchilik tug’diruvchi, alamli, g’ayriqonuniy va o’zboshimcha” harakat hisoblanadi va har qanday qasddan qilingan jinoyat jamiyatning mavjud sharoitlariga tajovuz qiluvchi, insonlarning jamiyatga qarshi xulqidan iborat bo’lib, jamiyatdagi mavjud munosabatlar tartibini zo’rlik bilan o’zgartirishga urinish sifatida tavsiflanishi mumkin.

Leksikologiyaning bunday (O’zbek tilining izohli lug’ati) ishonchli manbasi bo’yicha “zo’rlik”ning etimologik tahlili bu so’zning haqiqiy ma’nosini anglatayotgan, bir kishining boshqa bir kishi irodasi (xohishi)ga qarshi sodir etgan qandaydir harakatidan iborat ekanligini ishonarli isbotlab beradi. Ammo har doim ham zo’rlik ijtimoiy xavfli va qonunga xilof bo’lmasligi mumkin. Jumladan, zaruriy mudofaa holatida qo’llaniladigan zo’rlik qonuniy hisoblanadi.

⁵ Qarang: O’zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T., 2009. – B. 199.

⁶ O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.4. –T., 2002. – B. 47.

⁷ Yuridik ensiklopediya. – T., 2001. – B. 171.

⁸ O’zbek tilining izohli lug’ati (A.Madvaliyev tahriri ostida). T.2.–T. «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.– B.167.

O'zbek tilining izohli lug'atida "zo'rlik" so'ziga "zo'ravonlik, adolatsizlik"⁹, degan ta'rif ham berilgan.

Shu tarzda zo'rlik so'zining leksik ma'nosini ochishda jismoniy kuch ishlatishda ifodalaniladigan o'zboshimcha harakatning tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotida o'z ifodasini topgan. Shundan kelib chiqib, jismoniy zo'rlik jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatishga olib keluvchi jinoiy xatti-harakatning usuli sifatida olimlarning ilmiy yondashuvlariga asos bo'lgan.

Shuning uchun ham bizningcha "zo'rlik" atamasini grammatik izohlash yoki izohli lug'atlarida berilgan etimologik ma'nosini aniqlab olish yo'li bilan uning jinoyat-huquqiy ma'nosini bilish qiyin.

Yuqoridagilarni hisobga olib, "zo'rlik" so'zining haqiqiy, tom ma'nosi, "insonlar o'rtasidagi muayyan o'zaro munosabatlarni aks ettiradigan bir tomoni, ikkinchi tomonning xohishiga qarshi yo'naltirilgan erkin xulqidir"¹⁰. O'z fikrlarini davom ettirib A.V.Ivashchenko va A.I.Marsevlar o'z ma'nosi bo'yicha zo'rlik bilan bog'liq uchta juda nozik va chuqur takliflarni ta'riflab berishadi. "Ya'ni zo'rlik sifatida erkin istak bildirishiga qarshi bevosita qaratilgan ongli tezkor faoliyatlarni ko'rib chiqish lozim. Zo'rlikni bunday tushunishda uning kamdan-kam uchraydigan o'ziga xos xususiyatini biror kishining erki-irodasiga qarshi harakat sodir etilishi, erkinligi cheklanishi, unga shikast yetkazilishi deb hisoblash zarur. Inson faoliyatining ko'pgina boshqa shakllaridan farqli o'laroq, faqat zo'rlik harakatlari shaxsning erkinligini cheklashga qaratilgan xulqdan iboratdir"¹¹. Bizningcha, izohlab berilgan tushuncha har qanday fan, jumladan, jinoyat huquqi fani nuqtayi nazaridan zo'rlikni o'rganish uchun asos bo'ladi.

Zo'rlik ayrim huquqshunoslar tomonidan ham keng ma'noda talqin qilinadi. Xususan, Yu.M.Antonyan, I.B.Boyko va V.A.Vereshchagin "o'ziga o'zi ishlatiladigan zo'rlik"ni insonning o'ziga qarshi qaratilgan ongli faoliyati sifatida e'tirof etgan. A.V.Naumovning fikricha esa "...zo'rlik (jumladan, zaruriy mudofaada ishlatiladigan zo'rlik) qonuniy bo'lib, faqat uni qonunga xilof va ijtimoiy xavfli bo'lgan voqealardan ajrata bilish lozim"¹².

Biz bu fikrga qo'shila olmaymiz, chunki maishiy ma'nodagi emas, balki huquqiy ma'nodagi zo'rlik ham aniq bir ta'rifga ega bo'lishi lozim. Zo'rlik ishlatish bilan unga qarshi himoyalaniшни bir xil tushuncha deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, shaxsga zo'rlik ishlatayotganda unga nisbatan qarshi qilingan harakatlarini zo'rlik deyish noto'g'ri, chunki u zo'rlikka barham berish uchungina qarshi harakat qilishi mumkin.

Zo'rlik atamasining mazmuniga o'zbek huquqshunoslari tomonidan "biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo'rlik qilishi, zo'rlashi, kuch ishlatish yo'li bilan zo'rlashi, jabr-zulm qilishi", deb ta'rif berilgan. Ularning fikricha, zo'rlik "inson daxlsizligini buzib, jismoniy va

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati (A.Madvaliyev tahriri ostida). T.2.–T. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – B.167.

¹⁰Иващенко А.В., Марсеев А.И. Методология правового исследования насилия // Социально-правовые проблемы борьбы с насилием. – Омск, 1996. – С.4.

¹¹ Иващенко А.В., Марсеев А.И. Методология правового исследования насилия // Социально-правовые проблемы борьбы с насилием. – Омск, 1996. – С.4.

¹²Антонян Ю.М., Бойко И.Б., Верещагин В.А. Насилие среди осужденных. – М., 1994. – С.66.

ma'naviy zo'rlash, jabr-zulm qilish shaklida bo'lishi mumkin"¹³.

A.V.Naumov zo'rlik tushunchasini keng talqin qilish tarafdori sifatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar qatoriga ehtiyotsizlik orqasidan odam o'ldirishni ham kiritgan va bu yondashuvni to'la qo'llab-quvvatlagan¹⁴.

Biroq bu yondashuv L.V.Serdyuk tomonidan tanqid qilinib, aybning ehtiyotsizlik shaklida sodir etiladigan jinoyatlar uchun zo'rlik xos emas¹⁵, deb ta'kidlangan.

Q.P.Payzullayev ham zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ehtiyotsizlikdan emas, balki qasddan sodir etiladi¹⁶ degan fikrni ilgari suradi.

Bizning fikrimizcha ham, bironvga nisbatan ongli ravishda zo'rlik ishlatish, unga jismoniy yoki ruhiy azob berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyatlarda bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagi holatda zo'rlik chegaralari uning tushunchasiga nisbatan asosiz ravishda kengaytirib yuborilgan. Ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish qonunga xilof, lekin aybdorning ixtiyoriy bo'lmagan harakati natijasidir. Bu yerda zo'rlikning asosiy belgisi bo'lgan shaxsga ziyon yetkazuvchining irodasi yetishmaydi. Biror-bir oqibatni istamasdan, balki u haqida bilmasdan shaxs zo'rlik ishlatishi mumkin emas.

Bizningcha, zo'rlik tushunchasi faqat qasddan sodir etiladigan qilmishlarga nisbatan qo'llaniladi. Zotan, aybdor biror shaxsga zo'rlik ishlatilayotganini bilmasligi mumkin emas. Shaxs, albatta, qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini angelaydi va shunday qilmishni sodir etishni istaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Антонян Ю.М., Бойко И.Б., Верещагин В.А. Насилие среди осужденных. – М., 1994. – С.66.
2. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti, 2009. – B.199.
3. Наумов А.В. Уголовно-правовое значение насилия / В кн. «Насилственная преступность». Под ред. Кудрявцева В.Н. и Наумова А. В. – М., 1997. – С.56.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati (A.Madvaliyev tahriri ostida). T.2.–T. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.– B.167.
5. Ивашенко А.В., Марсев А.И. Методология правового исследования насилия // Социально-правовые проблемы борьбы с насилием. – Омск, 1996. – С.4.
6. Сердюк Л.В. Насилие: криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: Юрлитинформ, 2002. – С.14.
7. Payzullayev Q.P. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar. – T., 2009. – B.18.

¹³ Mualliflar jamoasi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti, 2009. – B.199.

¹⁴Наумов А.В. Уголовно-правовое значение насилия / В кн. «Насилственная преступность». Под ред. Кудрявцева В.Н. и Наумова А. В. – М., 1997. – С.56.

¹⁵Сердюк Л.В. Насилие: криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: Юрлитинформ, 2002. – С.14.

¹⁶ Payzullayev Q.P. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar. – T., 2009. – B.18.